Qishloq xo’jaligi ekinlari hosildorligini oshirishdagi ilmiy izlanishlar

Dunyo aholisining soni o’sishi bilan bog’liq global muammolarni hal qilish uchun qishloq xo’jaligi faoliyatini yuritish usullarini o’zgartirish zarur. Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (Food and Agriculture Organization - FAO) ma’lumotlariga ko’ra, 30 yildan so’ng dunyo aholisini boqish uchun hozirgi kunga nisbatan 70 foizdan ortiq oziq-ovqat mahsuloti talab etiladi. Tuproq unumdorligining pasayishi, global iqlim o’zgarishi, yetishtirilayotgan mahsulotga sarflanadigan energiyaning yuqoriligi kabi muammolar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga jiddiy to’sqinlik qiladi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda "personallashtirilgan" ("barqaror", "aqilli") qishloq xo’jaligi kontsepsiyasi ekinlardan olinadigan hosilni va unga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Bu borada, O’zR FA Genomika va bioinformatika markazi olimlari tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Ushbu loyiha doirasida “Porloq-4” g’o’za navi urug’lik chigitlari o’sish va rivojlanishni tezlatuvchi biopereparatlar bilan qayta ishlanib ekildi. Kuzatuvlarga ko’ra, biopereparatlar bilan ishlov berilgan dala maydonlarida ko’chatlarning o’sishi, rivojlanishi hamda hosilga kirishi jadallashdi. O’zR FA Genomika va bioinformatika markazi olimlari kelgusida boshqa qishloq xo’jaligi ekinlariga ham “personallashtirilgan”ni tadbiq etishni rejalashtirgan.